



INSON QADRINI ULUG‘LASH, ADOLATNI TA‘MINLASH ORQALI XALQNI ROZI QILISH ULUG‘VOR MAQSADIMIZ

Farg‘ona shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-iyul kuni hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.



— Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug‘lashni eng oliy qadriyat sifatida e‘tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo‘ydik. Yagona maqsadimiz — adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash orqali xalqimizni rozi qilish, — dedi davlatimiz rahbari.

Buning uchun vakolatlari tuzilmalarga barcha sharoitlar yaratilmoqda. Oxirgi ikki yilda huquq-tartibot faoliyatiga oid 10 ta qonun,

Prezidentning 40 ga yaqin farmon va qarorlari, 60 dan ortiq hukumat qarorlari qabul qilindi. Huquq-tartibot organlari, ayniqsa, ichki ishlar xodimlarining oylik maoshi keskin oshirildi va ko‘plab imtiyozlar berildi. “Mahalladagi beshlik” uchun 30 mingdan ortiq yangi shtatlar kiritildi. Chunki aholining tinchligini ta‘minlash mahalladan boshlanishi kerak.

Lekin o‘tgan 6 oyda mahallalarda barvaqt oldini olish mumkin bo‘lgan 12 mingga

yaqin jinoyat sodir etilgan. 9 ming 500 ga yaqin mahallaning 1 ming 500 tasida kriminogen vaziyat bor.

Jinoyatchilikni jilovlash va aholi bilan ishlashda sustkashlikka yo‘l qo‘yganligi uchun Bosh prokurorning birinchi o‘rinbosari, ichki ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari va jamoat xavfsizligi uchun mas‘ul o‘rinbosariga “hayfsan” e‘lon qilindi.

Sergeli, Yangiyo‘l, Shayxontohur, G‘ijduvon, Kogon, Tuproqqal‘a, Taxtakopir, Tomdi,

Yakkabog‘, Oltinsoy, Zafarobod, Boyovut, Guliston, Mingbuloq, Oltinko‘l tumanlari ichki ishlar bo‘limi boshliqlari, Andijon, Bandixon, Buwayda, Narpay, Yunusobod tumanlari prokurorlari egallab turgan lavozimidan ozod qilindi.

Ma‘lumki, Nukus shahridagi “Altin jag‘is” mahallasida jinoyat yo‘liga kirish ehtimoli yuqori aholi bilan yangicha ishlash tizimi joriy qilindi. Unga ko‘ra, bunday toifaga kiruvchi aholi “ijtimoiy profilaktika” tamoyili asosida “mahalla beshligi”ga nomma-nom birlashtirildi. Lekin bu tizimni butun mamlakatda joriy etish sust tashkil etilgan.

Endi mahallada jinoyatchilikni jilovlash borasida yangicha ish tartibiga o‘tilishi belgilandi. “Ijtimoiy profilaktika” bo‘yicha mahalla mas‘ullarining vazifalari va metodikasini ishlab chiqishga ko‘rsatma berildi.

Viloyat — tuman — mahalla kesimida ijtimoiy va kriminogen muammolarni raqamlashtirish orqali “Ijtimoiy vaziyat” axborot tizimini, shuningdek, “112” tezkor raqami va dispetcherlik tizimini ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Jinoyat qilgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgani afsus bilan qayd etildi. Shu bois, uyushmagan yoshlar bilan yagona yondashuv asosida ishlashni yo‘lga qo‘yish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati raisi boshchiligidagi Idoralararo kengash tuziladigan bo‘ldi. Bu kengash yoshlar bilan manzilli ishlash dasturlarini amalga oshiradi.

Oilaviy nizolar, ayollar jinoyatchiligi holatlariga ham e‘tibor qaratildi. Ijtimoiy-maishiy muammosi bor oilalar bilan ishlash — davlat idoralarining birinchi galdagi vazifasi bo‘lishi kerakligi ta‘kidlandi. Shu maqsadda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Endi og‘ir hayotiy ahvolga tushgan oilalarga yordam berish bo‘yicha “ijtimoiy xizmat ishi” ochildi. “Xavfsiz oila” tamoyili asosida alohida ish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ IKKI YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Ko‘p millatli xalqimiz shu kunlarda Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida butunlay yangi davrni boshlab bergan unutilmas tarixiy voqea — O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik sanasini baland ruh va ko‘tarinki kayfiyat bilan nishonlash uchun qizg‘in tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Aynan 1991-yil 31-avgust kuni xalqimiz o‘z Vatani, taqdiri va kelajagiga o‘zi egallik qilish huquqini qo‘lga kiritdi. Dunyo xaritasida O‘zbekiston Respublikasi — yangi suveren va mustaqil davlat paydo bo‘ldi.

O‘tgan tarixan qisqa vaqt davomida elimizning fidokorona mehnati va qat‘iyati bilan milliy o‘zligimiz, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, ezgu qadriyat va an‘analari-miz qayta tiklandi, davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o‘zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi.

Mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarimizni izchil davom ettirish, barcha soha va tarmoqlar rivojini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bugungi kunda yurtimizda millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan yangi jamiyat va davlat barpo etilmoqda.

Mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan, yangilangan Konstitut-

siyamizning qabul qilinishi el-yurtimiz Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor yaqqol tasdiqladi.

Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish va tadbirkorlikka keng yo‘l ochish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirish, tibbiy xizmatlar va ta‘lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yurtimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirish yo‘lida erishayotgan natijalarimiz tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda, ularni har bir yurtdoshimiz o‘z hayotida sezmoqda, his etmoqda.

Dunyodagi murakkab siyosiy-iqtisodiy vaziyatga qaramasdan, boshlagan islohotlarimizni izchil davom ettirib, yangi bosqichga olib chiqishda biz uchun barcha yutuqlarimiz omili, kuch-g‘ayrat, g‘urur va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilayotgan Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligini Yangi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot darajasi, shonu shuhratiga mos holda munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash maqsadida:

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

JISMONIY TARBIIYA VA SPORT SOHASI UCHUN TIBBIYOT KADRLARINI TAYYORLASH HAMDA SPORTCHILARGA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–414-son qaroriga muvofiq, shuningdek, sport tibbiyoti sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish orqali sportchilarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Quyidagilar jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun sport tibbiyoti yo‘nalishini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

kadrlar tayyorlash bo‘yicha ilg‘or innovatsion, ilmiy-uslubiy texnologiyalarni

joriy etish orqali o‘quv jarayonlarini sport-ta‘lim muassasalari va milliy terma jamoalar bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish;

sport tibbiyoti yo‘nalishida kadrlar tayyorlashda talabalarning amaliy mashg‘ulot darslari hamda amaliyotini Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazida tashkil etish orqali dual ta‘lim tizimini rivojlantirish;

xorijiy mutaxassislar (sport shifokori, sport diyetologi, sport fiziologi, sport farmakologi, sport psixologi)ni jalb qilgan holda sport tibbiyoti sohasidagi xodimlarning malakasini oshirishni tizimli yo‘lga qo‘yish;

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

MAHALLALARDA SPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH VA SPORT MAYDONCHALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish, sport maydonchalari tozaligini saqlash va atrofini obodonlashtirish bo‘yicha ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5282-son hamda 2022-yil 11-apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–201-son qarorlariga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi PQ–201-son qarori bilan tasdiqlangan Mahallalarda yoshlar o‘rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining 5-bandida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi g‘olib va sovrindor bo‘lgan hamda hududida sport infratuzilmasi mavjud bo‘lmagan mahalla terma jamoalari uchun universal, stritbol va vorkaut sport maydonchalarini (keyingi o‘rinlarda — sport maydonchalari) qurish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

XALQLAR DO‘STLIGI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH YURTDOSHLARIMIZNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda millatlararo do‘stlik va totuvlikni, turli millat va elat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlik, mehr-oqibat muhitini asrash, milliy madaniyatlar, urf-odat va an‘analarni rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari, Yangi O‘zbekistonning tinchliksevar va xalqparvar siyosatini xalqaro miqyosda keng targ‘ib etish, shuningdek, turli sohalarida samarali mehnat qilib, yurtimiz iqtisodiyotini yuksaltirishga qo‘shgan munosib hissasi, yosh avlodni Vatanga muhabbat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash

yo‘lidagi ibratli ishlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Do‘stlik” ordeni bilan

Allaberganov Bekman — Amudaryo tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi raisining o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Altunina Larisa Mixaylovna — O‘zbekiston rus milliy madaniy markazining Olmaliq shahar bo‘limi raisi, Toshkent viloyati

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Davomi 2-betda

